MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Djalilova Tursunoy Sharifovna

Andijon viloyati Buloqboshi tumani

21 DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Yangi ta'lim metodlari, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek, bolalarning intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga ta'siri yoritiladi. Mavzu doirasida interfaol metodlar, elektron resurslar hamda raqamli texnologiyalar orqali ta'lim samaradorligini oshirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kreativlik, ta'lim samaradorligi

KIRISH: Bugungi globallashuv davrida har bir jamiyatning taraqqiyoti, eng avvalo, uning ta'lim tizimiga bevosita bog'liq. Mamlakat taraqqiyotida ta'lim sifatini oshirish, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu jarayonda maktabgacha ta'lim alohida o'rin tutadi, chunki inson shaxsining intellektual, axloqiy, ma'naviy va jismoniy rivojlanishining asoslari aynan erta bolalik davrida shakllanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari bolani keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorlaydigan poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli bu muassasalarda qo'llaniladigan pedagogik metodlar, texnologiyalar va yondashuvlar bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda an'anaviy metodlar bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalaga aylangan. Innovatsion texnologiyalar deganda, bolani markaziy shaxs sifatida tan oladigan, uning qiziqishi va qobiliyatlarini inobatga oladigan, faoliyatga asoslangan, interfaol hamda raqamli imkoniyatlarni keng qo'llashga asoslangan

metodlar tushuniladi. Bunday yondashuvlar nafaqat bilim berish, balki bola shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiatdan bilishga qiziquvchan, har bir narsani o'rganishga intiluvchi bo'ladilar. Shu bois ularning tabiiy qiziqishini qo'llab-quvvatlash va to'g'ri yo'naltirish pedagogning asosiy vazifalaridan biridir. Innovatsion pedagogik texnologiyalar bu jarayonda keng imkoniyatlarni taqdim etadi: interaktiv o'yinlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron resurslar, rolli mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlar orqali bola bilimni tayyor shaklda emas, balki mustaqil izlanish va amaliy faoliyat orqali egallaydi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida bola va tarbiyachi o'rtasidagi munosabat ham o'zgarib bormoqda. Endilikda tarbiyachi bilimni bir tomonlama beruvchi emas, balki bolaning qiziqishi va ehtiyojlariga mos ravishda yo'naltiruvchi, hamkorlik qiluvchi shaxs sifatida maydonga chiqmoqda. Bu esa ta'lim jarayonini demokratlashtirish va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tamoyillarini hayotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ushbu adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy metod va texnologiyalar ta'lim jarayonida bola faoliyatini markazga qo'yish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Amerikalik pedagog olimi J. Dewey o'zining "Experience and Education" asarida ta'lim jarayonini hayotiy tajriba bilan uzviy bog'lash zarurligini ta'kidlab, bolalarda o'yin va faoliyat orqali bilim shakllantirish g'oyasini ilgari surgan [1]. Dewey ta'limning passiv emas, balki faol ishtirok orqali amalga oshirilishi bolalarning qiziqishini oshirishini ko'rsatadi.

Rus olimi L.S. Vygotskiy esa bolaning kognitiv rivojlanishi muloqot va hamkorlik orqali shakllanishini asoslab, "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasini yaratdi [2]. Unga ko'ra, bolalar mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni kattalar yoki tajribaliroq tengdoshlar yordami bilan amalga oshirib, yangi bilimlarni o'zlashtiradilar. Bu yondashuv bugungi

innovatsion texnologiyalarda qo'llanilayotgan hamkorlik va interfaol metodlarga nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonlik olimlardan R. Mavlonova va O. Hasanboeva maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning o'rni haqida to'xtalib, pedagogning interfaol metodlarni qo'llashi bolalarda tafakkurni kengaytirishi, nutqni rivojlantirishi hamda ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishini alohida ta'kidlaganlar [3]. Ularning fikricha, "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Baliq skeleti" kabi metodlar bolaning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, "Rol o'ynash" va "Debat" esa ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, Sh. To'raeva o'z tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilib, multimedia vositalari yordamida bolalarning e'tiborini jalb qilish va bilimlarni barqaror o'zlashtirish imkoniyati yuqori ekanligini qayd etgan [4]. N. Shodiyeva esa maktabgacha ta'limda innovatsion metodlarni qo'llash jarayonida tarbiyachilarning tayyorgarlik darajasi muhim o'rin tutishini, ayniqsa, zamonaviy raqamli vositalarni qo'llash malakasiga ega bo'lgan tarbiyachilar o'z faoliyatida yuqori samaradorlikka erishishini ta'kidlaydi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ko'plab kuzatuv va amaliy tajribalar orqali o'z isbotini topmoqda. Ta'lim jarayonida yangicha yondashuvlarning joriy etilishi bolalarning qiziqishini oshirish, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ijodiy va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali bola shaxsini rivojlantirish, uni keyingi ta'lim bosqichlariga puxta tayyorlash imkoniyati kengayadi. Avvalo, maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik va fiziologik xususiyatlari innovatsion metodlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Bolalar tabiatan faol, qiziqqon, yangi narsalarni bilishga intiluvchan bo'ladilar. Shu bois, ta'lim jarayonida ularning tabiiy qiziqishini qo'llab-quvvatlash, bilishga bo'lgan ehtiyojini rag'batlantirish juda muhimdir. Innovatsion pedagogik texnologiyalar bu jarayonda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi, chunki ular o'yin, muammoli vaziyat, interfaol mashg'ulotlar orqali bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga imkon beradi.

O‘yin elementlari maktabgacha ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan o‘yinlarda bolalar faqatgina ko‘ngil ochmay, balki o‘z bilim va ko‘nikmalarini kengaytiradilar. Masalan, ranglar, shakllar, sonlar yoki harflarni o‘rgatishda elektron o‘yinlar, interaktiv doska yoki multimedia vositalaridan foydalanish natijasi an’anaviy metodlarga qaraganda samaraliroq bo‘lishi kuzatilmoqda. Bunday yondashuv bolalarda vizual va eshitish orqali idrok qilish jarayonini kuchaytiradi, bilimlarni tez va barqaror o‘zlashtirishga olib keladi. Bundan tashqari, muammoli vaziyatlardan foydalanish bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi. Masalan, tarbiyachi bolaga oddiy hayotiy vaziyatni taqdim etib, u qanday yechim topishini so‘rashi mumkin. Bola o‘zining hayoliy fikrlari orqali muammoga yechim izlaydi, bu esa uning tafakkurini kengaytiradi. Shu tariqa bolalar mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonida bolalarning muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Interfaol metodlar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda bolalar bir-birlari bilan fikr almashadilar, savol beradilar, javob qaytaradilar, hamkorlikda ishlashni o‘rganadilar. Bu jarayon ularning ijtimoiylashuvini tezlashtiradi, jamoada ishlash madaniyatini shakllantiradi. Bolalar muloqot orqali o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishni, o‘z fikrini himoya qilishni, boshqalarning fikrini hurmat qilishni o‘rganadilar. Axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish maktabgacha ta’lim muassasalarida keng joriy etilmoqda. Multimedia vositalari, elektron dasturlar, interaktiv ilovalar bolalar dunyoqarashini kengaytirish, ularning bilim olish jarayonini qiziqarli qilishda katta ahamiyatga ega. Masalan, tabiat haqidagi bilimlarni berishda oddiy rasmlar yoki hikoyalardan ko‘ra, animatsion videoroliklar ko‘proq ta’sir qiladi. Bola ko‘rgan, eshitgan va o‘zining faol ishtirokida tajribadan o‘tkazgan bilimni mustahkam eslab qoladi. Raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda bolalar dastlabki kompyuter savodxonligini egallash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning keyingi bosqichlarda axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmalarini tezroq rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida ota-onalar ham ishtirok etishi mumkin, bu esa oilaning ta’lim jarayoniga faol qo‘shilishini ta’minlaydi. Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish natijasida bolalarda ijodkorlik

salohiyatining ortishi kuzatiladi. Masalan, "Rol o'ynash" metodida bolalar turli kasb egalari, hayotiy vaziyatlar yoki ertak qahramonlarini jonlantirish orqali ijodiy qobiliyatlarini namoyon etadilar. Bu mashg'ulotlar jarayonida ular faqatgina qoidaga asoslanmay, balki o'z tasavvurlari va g'oyalari asosida ijod qilishadi. Natijada, bolalarning hayoliy tafakkuri kengayadi, ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Innovatsion texnologiyalar shuningdek, bolalarning individual qobiliyatlarini yuzaga chiqarish imkoniyatini ham beradi. Har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va moyilligi turlicha bo'ladi. Tarbiyachi innovatsion metodlardan foydalanish orqali bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olib, ularning qiziqishini oshirish imkoniga ega bo'ladi. Masalan, san'atga qiziqqan bola uchun rasm chizish, qo'shiq aytish yoki raqsga oid mashg'ulotlarni innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etish mumkin. Shuningdek, matematika yoki mantiqiy o'yinlarga qiziqqan bolalar uchun elektron dasturlar orqali mashg'ulotlar o'tkazish samarali natija beradi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayoni olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy metodlar ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda, bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda va ularning ijtimoiy hayotga tayyor bo'lib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'tkazilgan izlanishlardan ma'lum bo'ldiki, ta'lim jarayonida faqatgina an'anaviy usullar bilan chegaralanib qolish samaradorlikni pasaytiradi, biroq interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'yinli yondashuv va integratsiyalashgan darslar bolaning qiziqishini oshiradi, ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi va mustaqil bilim olishga rag'bat uyg'otadi. Shuningdek, tahlillar natijasida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta'siri ikki yo'nalishda namoyon bo'lishi aniqlandi: birinchidan, ularning shaxsiy rivojlanishida, ikkinchidan, ta'lim-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirishda. Bolaning mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasi, nutq madaniyati, ijtimoiy muloqotga kirishish qobiliyati va ijodiy tafakkuri aynan shu metodlar yordamida rivojlanadi. Shu bilan birga, pedagog uchun ham yangi texnologiyalar kasbiy

faoliyatni takomillashtirish, dars jarayonini samarali tashkil qilish, o'quvchilar bilan faol muloqot o'rnatish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
2. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. – Moskva: Pedagogika, 1996.
3. Mavlonova R., Hasanboeva O. Pedagogika. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.
4. To'raeva Sh. Maktabgacha ta'limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2020.
5. Shodiyeva N. Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. Niemi H., Toom A. The Finnish Early Childhood Education System and Innovation in Pedagogy. – Helsinki, 2018.